

## NOVERBAL MULOQOTNI IFODALOVCHI VOSITALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7294199>

ELSEVIER

Nurmatova Munixon Mashrabovna

*Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili kafedrasida  
katta o'qituvchisi*

O'rmonova Moxirabonu Muhammadali qizi

*Magistratura bo'limi Lingvistikasi (ingliz tili),  
magistranti*

Received: 04-11-2022

Accepted: 05-11-2022

Published: 22-11-2022

**Abstract:** Communication is the interaction of two or more people, the exchange of information of a cognitive or emotional-evaluative nature. This exchange is supported by non-verbal and verbal means of communication.**Keywords:** Psychophysiological reactions, facial expressions, non-verbal, verbal, communication.**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 04-11-2022

Accepted: 05-11-2022

Published: 22-11-2022

**Abstract:** Aloqa- bu ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro ta'siri, bu kognitiv yoki hissiy-baholash xarakteridagi ma'lumotlar almashinuvi. Bu almashinuv og'zaki bo'lmagan va og'zaki aloqa vositalari bilan ta'minlanadi**Keywords:** Psixofiziologik reaksiyalar, mimika, noverbal, verbal, kommunikatsiya..**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 04-11-2022

Accepted: 05-11-2022

Published: 22-11-2022

**Abstract:** Общение - это взаимодействие двух и более людей, обмен информацией познавательного или эмоционально-оценочного характера. Этот обмен поддерживается невербальными и вербальными средствами коммуникации.**Keywords:** Психофизиологические реакции, мимика, невербальные, вербальные, общение.**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

### Kirish.

Shaxslararo muloqot insonlar o'rtasidagi sub'ektiv qabul qilinadigan aloqa bo'lib, birgalikdagi faoliyat va muloqot jarayonida insonlar bir biriga o'tkazadigan o'zaro ta'sir turi va vositalarida ob'ektiv namoyon bo'ladi. Shaxslararo muloqot maqsad, yo'nalish, kutish, stereotip va shunga o'xshash dispozitsiyalar tizimi bo'lib, ular orqali odamlar bir birini tushunadilar va baholaydilar. Shaxslararo muloqot muvaffaqiyatli kechishi uchun sheriklar bir biriga mos bo'lishi kerak. Shaxslararo moslikni muloqot va birgalikdagi faoliyat bo'yicha sheriklarning bir birini tushunishi deb atash mumkin, bu moslik qadriyatlar bir xilligida, ijtimoiy vazifalar, qiziqishlar, ehtiyojlar, motiv, fe'l-atvor, mijoz, psixofiziologik reaksiyalar sur'ati va maromida va boshqa individual-psixologik xususiyatlarning shaxslararo ta'siri uchun boshqa jihatlar uyg'unligida namoyon bo'ladi.

### Asosiy qism.

Muloqot odamlar o'rtasidagi murakkab o'zaro tushunish va o'zaro ta'sir qilish ijtimoiy-psixologik jarayoni bo'lgan holda turli vositalar yordamida amalga oshadi. Ekspertlarning xulosalariga ko'ra, muloqotning juda katta qismini noverbal aloqa tashkil qiladi. Biz har kuni minglab noverbal belgi va harakatlarga, shu jumladan,

gavda holati, yuz (mimika) ifodalari, ko'z ifodasi, imo-ishoralar hamda so'zlash ohanggiga o'z munosabatimizni bildiramiz.

Noverbal muloqot va xulq-atvor to'g'risidagi ilmiy izlanishlar 1872-yilda Charlz Darvinning "*Insonlar va hayvonlarda emotsiyalar ifodasi*" nomli asarining nashriyoti bilan boshlandi. O'sha vaqtdan buyon, so'zlarsiz muloqot va xatti-harakatlarning turlari, ta'siri va ularning ifoda etilishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi.

Ushbu ishoralarning sezilarli darajada kichikligi bois biz ulardan ongli ravishda xabardor bo'la olmaymiz. Biroq, tadqiqotlar noverbal muloqotning to'qqiz turini, shu jumladan noverbal belgi va xatti-harakatlarni aniqladi.

### **Yuz ifodalari**

Yuz ifodalari noverbal muloqotning juda katta hissasiga to'g'ri keladi. Birgina tabassum yoki qovoq solish bilan qanchadan-qancha ma'lumot yetkazib berilishi mumkinligi haqida bir o'ylab ko'ring. Kishi yuzini, odatda, uning so'zlarini eshitishdan ancha oldin payqaymiz.

### **Imo-ishoralar**

Biror maqsadga yo'nalgan belgi va harakatlar so'zlarsiz ma'no yetkazishning muhim usulidir.

### **Paralingvistika**

Biz ishlatadigan tildan farq qiluvchi ovozli aloqa. Bunda ovozning balandligi, ohanggi va uning o'zgaruvchanligi gapning ma'nosiga ta'sirini hisobga olish muhim.

### **Tana tili va gavda holati.**

Tana tili bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar 1970-yildan buyon sezilarli darajada o'sdi, ayniqsa Julius Festning "*Tana tili*" kitobi nashridan so'ng, ommaviy axborot vositalari insonlarning o'z-o'zini himoyalash gavda holati, qo'llarini va oyoqlarni qovushtirish vaziyatlarini tahlil qilishga alohida urg'u berdi.

### **Proksemika**

Proksemika, bu suxbatdosh bilan bo'ladigan oraliq masofa. Odamlar ko'pincha "shaxsiy makon" ga bo'lgan ehtiyojlariga murojaat etishadi, bu ham noverbal aloqaning muhim turidir.

### **Ko'z nigohi**

Biror kishining suhbat jarayonida ko'zingizga to'g'ridan-to'g'ri qarashi, bu ularning qiziqqaligini va e'tibor berayotganligini anglatadi. Ammo, buning uzoq davom etishi qo'rqinchli tuyulishi mumkin.

### **Haptika**

Teginish orqali muloqot qilish noverbal muloqotning yana bir muhim turi hisoblanadi. Chaqaloqlik va bolalarning erta yoshlik davrida teginishning muhim ahamiyatli ekanligi to'g'risida juda ko'p tadqiqotlar mavjud. Garri Xarlov tomonidan maymunlarda o'tkazilgan tadqiqot teginish va aloqadan mahrum

bo'lishi ularning normal rivojlanishiga xalaqit berishini ko'rsatdi. Ular xulq-atvor va munosabatlarga kirishishda nuqsonlarni boshdan kechirishi kuzatildi.

### **Tashqi ko'rinish**

Biz tanlagan rang, kiyim, soch turmagi va tashqi ko'rinishga ta'sir etuvchi boshqa omillar ham norverbal aloqa vositasi hisoblanadi.

### **Artifaktlar**

Narsalar va tasvirlardan noverbal tarzda muloqot qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositadir.

Noverbal muloqot vositalari quyidagi belgilar tizimi: optik-kinetik (imo-ishora, pantomimika); paralingvistik (ovoz sifati, diapozoni, ohangi) va ekstralingvistik (sukut saqlash, tomoq qirish, yig'i, kulgi, nutq sur'ati) va qo'shimcha kommunikatsiya vositalari: proksemika (muloqotning makon va vaqtda tashkil etilishi, ya'ni sheriklarni joylashtirish); vizual muloqot ("ko'zlar to'qnashishi"); "hidlar tili". Noverbal muloqot vositalari muloqotda yordamchi (ba'zida mustaqil) vazifani o'taydi. Ular verbal ta'sirni kuchaytirish yoki susaytirish bilan bir qatorda kommunikativ jarayonning muhim jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, muloqot ishtirokchilarining asl niyatini. Noverbal muloqot-tilsiz muloqot, "tana tili": boshni burish va tebratish; ma'noli qarash; niyatni anglatuvchi imo-ishora; hatti-harakatlar; turli ma'nolarni anglatuvchi barmoqlar, qo'llar holati va shakli; ruhiy holatni ifodalovchi yelka harakati; kayfiyat, fe'l -atvorni aks ettiruvchi tana holati, gavgani tutish, yurish-turish; muloqot samaraliligiga ta'sir qiluvchi tashqi qiyofa. "Tana tili"ni o'qib bilish -samarali muloqot omillaridan biridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Andreeva, G.M. Ijtimoiy psixologiya: universitetlar uchun darslik / G.M. Andreeva, Moskva: Aspect-Press, 2001,
2. Obozov, N.N. Shaxslararo munosabatlar / N.N. Aravalar. - L. : Leningrad universiteti nashriyoti, 1979 .
3. Stolyarenko, L. D. Psixologiya asoslari / L.D. Stolyarenko. - 3-nashr, Qayta ko'rib chiqilgan. va qo'shimcha - Rostov-na-Don: Feniks, 1999.
4. [file:///C:/Users/%D1%83%D1%81%D0%B5%D1%80/Downloads/shaxslararo-munosabatda-profaylingning-verbal-va-noverbal-muloqotda-qo'llanilishi%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/%D1%83%D1%81%D0%B5%D1%80/Downloads/shaxslararo-munosabatda-profaylingning-verbal-va-noverbal-muloqotda-qo'llanilishi%20(1).pdf)